

6/2025,
noyabr-
dekabr
(№ 00080)



OLIV TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH TAMOYILLARI METODOLOGIK YONDOSHUVLARI VA BOSHQARISH SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Temirov Ortiq Suyunovich

*TDIU Innovatsion menejment kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d., (PhD).
Toshkent O'zbekiston.*

Email: O.temirov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss6/758

Annotatsiya

Bugungi kunda oliy ta'lim muassalarining boshqaruvdagi imkoniyatlar mavjud yondoshuvlar o'rganilib, oliy ta'lim muassalarining zamoviy boshqaruv kedrlari zaxirasini shakllantirish, rahbarik lavozimlariga munosib nomzodlarni tayyorlash hamda ulaning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib borish tizimini takomillashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: zamon, rahbar, xodim, metod, boshqaruv usullari.

Аннотация

Сегодня изучаются имеющиеся подходы в управлении высшими образовательными учреждениями, ведется системная работа по формированию резерва современных управленческих кадров высших образовательных учреждений, подготовке подходящих кандидатов на руководящие должности, совершенствованию системы развития своих знаний и умений.

Ключевые слова: время, лидер, сотрудник, метод, методы управления.

Abstract

Currently, available approaches to the management of higher education institutions are being studied, and systematic work is being carried out to form a modern management personnel reserve of higher education institutions, train worthy candidates for leadership positions, and improve the system for developing their knowledge and skills.

Key words: time, leader, employee, method, management methods.

Kirish

Jahon raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarida o'ta shiddatli rivojlanib borishi iqtisodiyotni samarali rivojlantirish ko'p jihatdan boshqaruv jarayoni samaradorligiga bog'liqligi sababli xalqaro mehnat bozorlarida raqobatbardosh kadrlar va rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlovchi oliy ta'lim sifati o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. "Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt davrida oliy ta'lim tizimlari bilimlar iqtisodiyoti va global mehnat bozorlari talablariga mos boshqaruv va tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirishi shart". Bugungi kunda jahonda istiqbol talablariga ko'ra oliy ta'lim tizimida malakali mutaxassislar va boshqaruv xodimlarini tayyorlashda ta'lim jarayonini innovatsion boshqaruv strategiyalari va innovatsion yondashuvga ko'ra samarali tashkil qilish, boshqaruv

xodimlarida yuqori darajada axborot-tahliliy kompetentlikni rivojlantirishga doir pedagogik-tashkiliy tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. “Samaradorlik ta’lim muassasasi faoliyatining jarayoni bilan sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatdir. Jarayon samarali boshqaruv maqsadlariga erishishda mavjud resurslarni minimal, lekin yetarli darajada sarflab, maksimal natijani ta’minlasa. Boshqaruv samaradorligi esa tashkiliy tuzilmaning ishonchliligi, ta’lim bozori imkoniyatlaridan foydalanish darajasi hamda ichki resurslarning oqilona boshqarilishiga bog‘liq. Bu omillar tizimning barqarorligi, raqobatbardoshligi va mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanilishini ta’minlaydi”.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Boshqaruv samaradorligini baholash ta’lim muassasasi faoliyatining natijadorligini belgilovchi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda mezonlar boshqaruvning umumiy miqdoriy va sifat xususiyatlarini o‘rnatadi, ko‘rsatkichlar esa ularning aniq va o‘lchanadigan natijalarini aks ettiradi. Ko‘rsatkichlar yig‘indisi amalda mezonlarni o‘zida mujassamlashtiradi va boshqaruv faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish uchun zamin yaratadi.

Boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlashda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda samaradorlik tashkiliy tuzilmaning real faoliyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi, asosiy mezon esa mavjud ta’lim resurslaridan maksimal darajada foydalanish darajasidir. Ikkinchi yondashuv boshqaruv tizimining yakuniy natijalariga asoslanadi. Bunda samaradorlikni aniqlash orqali nafaqat mavjud faoliyatga baho beriladi, balki muassasaning ijtimoiy-iqtisodiy takomillashuviga zamin yaratiladi.

Ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini baholashda ko‘rsatkichlarni aniq tanlash va tizimlashtirish muhim metodologik masaladir. Birinchi yondashuvga ko‘ra, samaradorlikning tashkiliy-me’yoriy jihatlari asos qilib olinadi, ya’ni resurslardan foydalanish darajasi, o‘quv yuklamalarining to‘liq bajarilishi, moddiy-texnik baza imkoniyatlaridan foydalanish ko‘lami, boshqaruv apparati faoliyatining muntazamligi baholanadi. Bu ko‘rsatkichlar yordamida oliy ta’lim muassasasining ichki imkoniyatlari, mavjud salohiyati va resurslarni boshqarish darajasi aniqlanadi. Shu tarzda, faoliyatdagi ichki muvofiqlik va samaradorlik darajasi ob‘yektiv mezonlar asosida tahlil qilinadi.

Ikkinchi yondashuv esa natijalarga yo‘naltirilgan boshqaruvni o‘z ichiga oladi. Bunda oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va innovatsion natijalari asosiy mezon sifatida olinadi. Misol uchun, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi, ilmiy-tadqiqot ishlari hajmi, xalqaro reytinglarda egallagan o‘rni, va manfaatdor tomonlar — talabalar, ota-onalar va ish beruvchilarning qoniqish darajasi kabilar asosiy indikatorlar bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu indikatorlar orqali muassasaning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalari, barqaror rivojlanish istiqbollari hamda ijtimoiy ahamiyati aniqlanadi.

Boshqaruv samaradorligini kompleks baholashda ushbu ikki yondashuvni integratsiyalashgan holda qo‘llash eng maqbul usul hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, faqat ichki jarayonlarga yoki faqat yakuniy natijalarga tayanish bir tomonlama xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, muvozanatli yondashuv asosida har ikki ko‘lamda olingan ma’lumotlar birlashtirilib, boshqaruv strategiyasi ishlab chiqiladi. Bu strategiya rejalashtirish, monitoring, tahlil va takomillashtirish bosqichlarini qamrab olgan tizimli yondashuvga tayanadi. Natijada boshqaruvning har bir bosqichi o‘zaro izchillikda amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasasining samarali boshqaruvi — bu faqatgina raqamlar va statistik ko‘rsatkichlar emas, balki o‘zgarishlarga ochiqlik, innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni

uyg'unlashtirgan yondashuvdir. Zamonaviy rahbarlardan nafaqat mavjud resurslarni oqilona boshqarish, balki kelajakni oldindan ko'ra olish, yangi muammolarni ilg'ash va ularga mos strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Shunday ekan, boshqaruv samaradorligini baholovchi tizimlar doimo takomillashib borishi, zamon talablari va ta'lim muhitidagi o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi lozim. Bu yondashuv oliy ta'limda barqaror va strategik taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasasini takomillashtirish ushbu jarayonning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks hisobga olgan holda tashqi muhitga moslashish tamoyili asosida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini baholash mezonlari murakkab bo'lib, ham ta'lim muassasasi faoliyatiga, ham tashqi subyektlar, ya'ni talabalar va ularning ota-onalari ishtirokiga bog'liq. Ularning hissasini o'lchash qiyin bo'lganligi sababli, samaradorlikni baholash uchun ko'p parametrlil yondashuv talab etiladi.

Boshqaruv samaradorligini baholash sohasida tadqiqotchilar qiyosiy tahlil yondashuvlarini ilgari surmoqdalar. Bunday yondashuv obyektiv ko'rsatkichlar asosida boshqaruv ta'sirining natijadorligini belgilaydi. Tahlil natijalarini ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orqali ta'lim muassasasi faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar baholanadi. Bu orqali nafaqat o'quv jarayonining sifati, balki boshqaruv qarorlarining amaliy samaradorligi ham tahlil qilinadi.

Bunday baholash jarayoni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshiriladi. Eng avvalo, baholanayotgan subyekt, ya'ni boshqaruv ta'siri o'tkazilayotgan obyekt aniq belgilanadi. Shundan so'ng baholashning asosiy maqsad va vazifalari belgilanadi. Ushbu bosqichda baholashning maqsadi ta'lim sifati va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini aniqlash, shuningdek, keyingi qarorlarni qabul qilish uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Keyingi bosqichda baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan tegishli ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi. Bu ko'rsatkichlar miqdor va sifat jihatdan aniq, o'lchanadigan va taqqoslanadigan bo'lishi kerak. Ko'rsatkichlarni aniqlashda ularni hisoblash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodika yordamida natijalar ishonchli tarzda aniqlanadi va turli davrlar yoki subyektlar o'rtasida taqqoslash imkonini beradi.


Shuningdek, baholash jarayonida statistik tahlil, dinamik taqqoslash usullari yoki diagnostik indekslardan foydalangan holda mavjud ma'lumotlar asosida hisoblash kabi tanlangan qiyosiy usullar qo'llaniladi. Bu tahlillar boshqaruv faoliyatining real natijalarini ochib beradi va samaradorlikning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar asosida boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar va istiqbollar aniqlanadi. Baholash natijalari nafaqat mavjud vaziyatni tahlil qilish, balki strategik rejalashtirish, takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash va ta'lim tizimida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy asosga aylanadi. Bu borada qiyosiy-baholash yondashuvi boshqaruv faoliyatini ilmiy, tizimli va natijaviy baholashni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ta'lim muassasasini samarali boshqarishda muvaffaqiyat mezonlarini aniqlash metodologik asos bo'lib, ular pedagogik, boshqaruv, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha kompleks baholanadi. Bu mezonlar muassasa faoliyatini har tomonlama tahlil qilishga xizmat qiladi.

OTMdagi boshqaruv faoliyati 1.1-rasmda ko'rsatilgan texnologik zanjir shaklida ifodalanishi mumkin.




1-rasm. Boshqaruv faoliyatining texnologik zanjiri

Yuqoridagi rasm asosida tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha boshqaruv samaradorligini baholash taxmin qilingan parametrni ma'lum bir standart bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Mezonlar kompleksi 1.2-rasmda ko'rsatilgan.

“Nazorat metodi ta'lim muassasasida qo'yilgan maqsadga erishish uchun nazorat faoliyatini amaliy tashkil etish vositasidir. Oliy ta'lim muassasasi murakkab va ko'p funktsiyali tizim bo'lganligi sababli, uning samaradorligini ta'minlashda nazoratning turli shakllari muhim rol o'ynaydi. Xususan, nazoratning dastlabki, joriy, yakuniy, ichki va tashqi turlari qo'llaniladi. Ular ta'lim jarayonini tartibga solish, baholash va takomillashtirishga xizmat qiladi hamda nazoratni boshqaruvning muhim mexanizmi sifatida belgilaydi”.

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishda ko'p maqsadli, qirrali va darajali yondashuv samaradorlikni ta'minlovchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Bu yondashuv boshqaruvning turli shakllari va darajalarini uyg'unlashtirish, boshqaruv elementlari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash hamda real vaziyatni obyektiv baholash imkonini beradi. Turli nazorat va tahlil usullarining integratsiyasi boshqaruv samaradorligini oshiradi.



2-rasm. OTMni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarining mezonlari to'plami

Axborot-tahliliy faoliyatga asoslangan pedagogik diagnostika tizimi esa jarayon va hodisalarni chuqur tahlil qilishga, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlashga imkon yaratadi. Diagnostika uch bosqichda — dastlabki, tasdiqlovchi va yakuniy shakllarda amalga oshirilib, qarorlar asoslanganligini ta'minlaydi. OTMda boshqaruv modeli tarkibiy bo'linmalarni yangilash, funksiyalarni optimallashtirish va ishtirokchilarni boshqaruvga jalb qilish orqali takomillashtiriladi. Umuman olganda, oliy ta'lim muassasasida boshqaruv samaradorligi — bu boshqaruv faoliyati orqali belgilangan maqsadlarga erishish darajasidir.

Tadqiqot natijalari

OTMni boshqarish samaradorligi ta'lim sifati, o'quv jarayonining unumdorligi, sharoitlarning amaliy ahamiyati va ijtimoiy obro' kabi to'rt mezon asosida baholanadi. Bu ko'rsatkichlar muassasa rivojlanish darajasini aniqlaydi. Samarali boshqaruv modelini

shakllantirish uchun boshqaruv subyektlarining kasbiy va strategik kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalar va ota-onalar faolligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyalarni monitoring qilish, tashxislash va uzluksiz takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshiradi hamda boshqaruv jarayonini strategik rejalashtirish, ijtimoiy sheriklik va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Shuningdek, OTM boshqaruvida inson kapitaliga asoslangan yondashuv alohida e'tiborga loyiq. Ya'ni, rahbar xodimlarning boshqaruv salohiyatini doimiy tahlil qilish, o'qituvchilarning metodik va raqamli ko'nikmalarini oshirish, hamda talaba-yoshlar ehtiyojlarini tizimli o'rganish orqali ta'lim muhitida uyg'unlik va barqarorlikka erishish mumkin. Bunday yondashuvda har bir subyekt o'z roli va mas'uliyatini aniq anglab, institut darajasidagi qarorlar jamoviy muloqot asosida qabul qilinadi. Shu boisdan, muassasa ichida doimiy tahlil, teskari aloqalar tizimi va malaka oshirish mexanizmlarining mavjudligi boshqaruv samaradorligining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Oliy ta'lim muassasasini samarali boshqarish — ko'p omilli, tizimli va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayon bo'lib, u aniq mezonlar asosida tashkil etilishi hamda boshqaruv subyektlarining kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish bilan bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, monitoring va diagnostikani tizimli amalga oshirish boshqaruv sifatini oshiradi. Bunday yondashuv ta'lim sifati, OTMning nufuzi va raqobatbardoshligini ta'minlab, uning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1442-son.

2. M.Pardayev., Boshqaruvda rahbarlik va liderlik mahorati, o'quv qo'llanma, Navro'z nashriyoti, T., 2012

3. Abdullayeva, G.R. (2019). Ta'lim tizimini boshqarishda monitoring va nazorat. Toshkent: “Fan va Taraqqiyot” nashriyoti.

4. Симонова В. П., Подготовка и повышение квалификации педагогических и управленческих кадров [Текст] : сб. науч. тр. / Междунар. пед. академия, Моск. гос. обл. ун-т, Фак. повышения квалификации преподавателей; под ред... - М. : МГОУ. - Вып.4. - 2007. - 97 с.

5. <http://www.pedagog.uz>

6. <http://www.bilimdon.uz>

7. <http://www.edunet.uz>